

## **O'zbek - Agape - God's Love Letter Scriptures**

**Yohanno 15:9 “Ota Meni qanday sevgan bo‘lsa, Men ham sizlarni shunday sevdim. Sevgimga sodiq qolinglar.**

**Ishayo 43:1 Endi ey Yoqub nasli, seni yaratgan Egamiz gapirmoqda! Ey Isroil xalqi, seni barpo qilgan Egamiz shunday aytmoqda: “Men seni qutqardim, Sening ismingni aytib chaqirdim, Sen Menikisan, qo‘rqma!**

**Yeremiyo 1:5 “Onang qornida senga shakl bermasimdan oldin seni bilgan edim, Tug‘ilmasingdan oldin seni O‘zim uchun ajratib olgan edim. Xalqlarga seni payg‘ambar etib tayinlagan edim.”**

**Yohanno 15:16 Sizlar Meni emas, Men sizlarni tanladim. Men sizlarni: “Borib hosil bersin, hosili boqiy bo‘lsin”, deb tanladim. Shunda Mening nomimdan Otadan nima so‘rasangizlar, U sizlarga beradi.**

**3 Yohanno 1:2 Aziz do‘stim, hamma ishlaringga Xudodan rivoj tilayman. Tanang ruhing singari sog‘–salomat bo‘lsin.**

**Ishayo 43:4 Ko‘z oldimda azizsan, qadrlisan, Men seni sevaman. Shu bois sening evazingga odamni, Joning evaziga xalqlarni beraman.**

**Yeremiyo 31:3 Men qadimda Isroilga zohir bo‘lib, shunday degan edim: Seni mangu sevgi bilan sevdim, Senga sodiq bo‘lib keldim.**

**Xo‘sheya 11:8 Ey Efrayim, qanday qilib sendan voz kechay?! Ey Isroil, qanday qilib seni tashlab ketay?! Admani yo‘q qilganimday seni yo‘q qila olarmikanman?! Zavo‘yimga qilganimni senga qila olarmikanman?! Bunday qilishga yuragim betlamas aslo! Senga bo‘lgan mehrim uyg‘ondi.**

**Yohanno 3:16 Zero, Xudo olamni shunchalik sevdiki, O‘zining yagona O‘g‘lini berdi. Toki Unga ishonganlardan birontasi halok bo‘lmasin, balki abadiy hayotga ega bo‘lsin.**

**Ishayo 49:15,16 Egam aytar: “Axir, ayol kishi emizikli bolasini unutadimi?! O‘zi tuqqan bolasiga rahm qilmaydimi?! Agar xotinlar bolasini unutsalar ham, Men seni aslo unutmayman! 16 Qara, sening nomingni kaftimga yozib qo‘ydim, Devorlaring doimo ko‘z oldimdadir.**

**Ishayo 41:13 Men O‘zim, Egang Xudo, o‘ng qo‘lingni kuchaytiraman, Senga: ‘Qo‘rqma, O‘zim yordamga kelaman’, degan Menman.”**

**Matto 28:20 Men sizlarga buyurgan hamma narsaga amal qilishni ularga o‘rgatinglar. Zotan, Men har doim, dunyoning oxirigacha sizlar bilan birga bo‘laman.”**

**Yohanno 14:1 Iso shogirdlariga dedi: — Yuragingiz siqilmasin. Xudoga ishoning, Menga ham ishoning!**

**Ishayo 41:14 Egamiz shunday aytmoqda: “Qo‘rqma, ey Isroil xalqi, Yoqub nasli! Sen kichkina bir chuvalchangdaysan. Ammo O‘zim senga yordam beraman. Men, Isroil xalqining muqaddas Xudosi, Sening Qutqaruvchingman.**

**Ishayo 43:2 Suvlardan o‘tganingda Men sen bilan birga bo‘laman. Daryolardan o‘tganingda Suvlar seni ko‘mmaydi. Olovdan o‘tganingda yonmaysan, Olov seni kuydirmaydi.**

**Zabur 23:1-6 Dovud sanosi. Egam Mening cho‘ponimdir. Muhtojlik ko‘rmasman. 2 Yam–yashil yaylovlarda U menga orom beradi, Sokin irmoqlar bo‘yida U meni yetaklaydi. 3 U menga qayta kuch baxsh etadi. O‘zining nomi haqi–hurmati Meni to‘g‘ri so‘qmoqlardan yetaklaydi. 4 Ey Egam! Hatto zulmat vodiysida yursam ham, Xavf–xatardan qo‘rqmayman, Axir, Sen men bilan birgasan. Sening cho‘pon tayog‘ing, Xiviching meni himoya qiladi. 5 Dushmanlarimning ko‘z o‘ngida Men uchun dasturxon tuzaysan. Boshimga moy surtib, Sen meni hurmat bilan kutib olasan. Mening kosam ham to‘lib–toshgan. 6 Umrim bo‘yi faqat inoyatu shafqating izimdan yuradi, Ey Egam, Sening uying to abad mening maskanim bo‘ladi.**

**Yohanno 14:27 Men sizlarga tinchlikni qoldiryapman. O‘z tinchligimni sizlarga beryapman. Men berayotgan tinchlik dunyo beradigan tinchlikka o‘xshamaydi. Yuragingiz siqilmasin, qo‘rqmanglar.**

**Filippiliklar 4:7 Shunda Xudo beradigan, inson xayoliga sig‘maydigan tinchlik Iso Masih orqali sizlarning yuraklaringizni va o‘y–xayollaringizni qo‘riqlaydi.**

**Sulaymonning Hikmatlari 3:24 Bexavotir yotasan, uyqung shirin bo‘ladi.**

**Zabur 4:8 Yotganimda xotirjam uxlayman, Ey Egam, yolg‘iz Sen meni omon saqlaysan.**

**Zabur 32:18 Egamiz ko‘rib turar O‘zidan qo‘rqqanlarni, Uning sodiq sevgisiga umid qilganlarni.**

**Rimliklarga 5:2 Rabbimiz Iso Xudoning inoyati eshigini bizga ochib berdi. Biz imon tufayli bu inoyatga erishib, mahkam turamiz hamda Xudoning ulug‘vorligiga sherik bo‘lish umidimiz borligidan faxrlanamiz.**

**Ishayo 55:12 Ha, siz xursand bo‘lib borasiz, Sog‘–omon qaytib kelasiz. Oldingizda tog‘lar, tepaliklar Sevinch ila hayqiradi, Daladagi hamma daraxtlar qarsak chaladi.**

**Yohanno 16:22 Shunga o‘xshab sizlar ham hozir g‘am–qayg‘u chekyapsizlar. Lekin Men sizlarni yana ko‘raman. Shunda yuragingiz quvonchga to‘ladi. Quvonchingizni sizlardan hech kim tortib olmaydi.**

**Luqo 12:9 Ammo kim insonlar oldida Meni rad etsa, u ham Xudoning farishtalari oldida rad etiladi.**

**Matto 10:30 Sizlarning esa hatto boshingizdagi har bir tola sochingiz sanalgan.**

**Ishayo 54:10 Tog'lar o'rnidan qo'zg'alsa ham, Tepaliklar tebransa ham, Mening sodiq sevgim sendan ketmaydi, Mening tinchlik ahdim o'zgarmaydi, — demoqda seni sevguvchi — Egamiz. —**

**Matto 11:28-30 Ey holdan toyganlar, og'ir yuk ostida qolganlar, hammalaringiz Mening oldimga kelinglar! Men sizlarga orom beraman.<sup>29</sup> Mening bo'yinturug'imni taqib olinglar, Mendan o'rganinglar. Chunki Men yumshoq ko'ngil va kamtarinman. Shunda sizlarning jonlaringiz orom topadi.<sup>30</sup> Axir, Mening bo'yinturug'im qulay, yukim yengildir.”**

**Sulaymonning 2:10 Sevgilim menga shunday deydi: “Tura qol, sevgilim, oppog'im, Men bilan yurgin.**

**Xo'sheya 2:14,19,20 Ko'p o'tmay Men uning ko'nglini ovlayman, Uni sahroga olib borib, shirin so'zlar aytaman. 19 Men seni O'zimga abadiy nikohlab olaman. Senga nisbatan adolatli va odil bo'laman. Seni doim sevaman, mehr-shafqat ko'rsataman. 20 Senga vafo qilaman, sen Meni Egang, deb bilasan.”**

**Chiqish 3:14 — Men har doim bor bo'lgan Xudoman, — deb javob berdi U. — Xalqim Isroilga: “Meni sizlarning oldingizga yuborgan — Men Borman”, deb aytasan. 19 Men seni O'zimga abadiy nikohlab olaman. Senga nisbatan adolatli va odil bo'laman. Seni doim sevaman, mehr-shafqat ko'rsataman. 20 Senga vafo qilaman, sen Meni Egang, deb bilasan.”**

**Xo'sheya 13:4 Ammo Egangiz Xudo — Menman. Ey Isroil, seni Misrdan olib chiqqanman. Mendan boshqa Xudoni sen bilmaysan, Mendan boshqa yo'qdir najotkoring.**

**Yohanno 15:14 Agar sizlar amrlarimni bajo keltirsangizlar, Mening do'stlarim bo'lasizlar.**

**Vahiy Yohanno 3:20 Mana, Men eshik oldida turib, taqillat yapman. Kim ovozimni eshitib eshikni ochsa, Men o'shaning oldiga kiraman. Men u bilan va u Men bilan ovqatni baham ko'ramiz.**

**Pastor T. John Franklin  
Church of Salvation, Healing, and Deliverance  
COS-HAD.org**